



SIRDARYO VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI (2019 yil yanvar-mart oylari)

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 671,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,2 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 79,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 11,8 %), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 591,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 57,9 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,1 %ga ko'paygan) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd.so'm)



Chakana savdo tovar aylanmasida katta hajmga ega bo'lgan Guliston shahri (268,3 mlrd.so'm), Sirdaryo tumani (110,4 mlrd.so'm), Yangiyer shahri (60,0 mlrd.so'm), Mirzaobod tumani (50,3 mlrd.so'm), ijobiy tasirini ko'rsatmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2m % ga ko'paydi va 79,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,8 % ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik tadbirdorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 591,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 2,0 % ga o'sdi. viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,2 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi ulishi, (%)



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulishi 2015 yil yanvar-mart oylari 91,9 % ni tashkil qilgan bo'lsa 2019 yilga kelib kichik tadbirkorlikning ulishi 88,2 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulishi, (%)




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Xovos t (99,3 %), Shirin sh (99,1 %), va Sardoba (97,4%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 11,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Guliston shahrida (23,7 %), Sayhunobod tumani (5,6 %) va Mirzaobod tumanlari (5,4 %) kuzatildi.

Chakana savdo aylanmasi va kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasidagi hajmi

| | Chakana savdo aylanmasi (mlrd.so'm) | O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da | Kichik tadbirkorlik (mlrd.so'm) | O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da |
|------------------------------|-------------------------------------|--|---------------------------------|--|
| Sirdaryo viloyati | 671,4 | 2,2m | 591,9 | 101,4 |
| Guliston sh. | 268,3 | 2,5m | 204,7 | 104,7 |
| Shirin sh | 9,9 | 43,5 | 9,8 | 104,1 |
| Yangiyer sh tumanlar: | | | | |
| Boyovut | 35,4 | 71,1 | 34,5 | 102,8 |
| Guliston | 25,8 | 3,8m | 25,0 | 104,4 |
| Mirzaobod | 50,3 | 2,6m | 47,5 | 102,9 |
| Oqoltin | 32,3 | 3,7 | 31,2 | 102,3 |
| Sardoba | 29,8 | 3,5 | 29,0 | 103,4 |
| Sayxunobod | 23,1 | 184,9 | 21,8 | 104,1 |
| Sirdaryo | 110,4 | 134,9 | 105,6 | 103,4 |
| Xovos | 26,2 | 67,5 | 26,0 | 103,2 |

Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, yanvar-mart oylari (%)



2019 yil yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 807,7 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,3 % ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilga nisbatan o'rtacha jon boshiga tovarlar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Guliston shahri (3007,9 ming so'm), Yangiyer shahri (1406,3 ming so'm) va Sirdaryo tumanida (877,2 ming so'm) kuzatildi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Xovos tumanida (279,4 ming.so'm), Boyovut tumani (277,7 ming.so'm) va Sayxunobod tumanida (304,2 ming so'm) qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

| | Ming. so`m | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da |
|--------------------------|--------------|--|
| Sirdaryo viloyati | 807,7 | 107,3 |
| Guliston sh. | 3007,9 | 118,7 |
| Shirin sh | 537,2 | 100,9 |
| Yangiyer sh | 1406,3 | 99,8 |
| tumanlar: | | |
| Boyovut | 277,7 | 98,1 |
| Guliston | 364,5 | 102,2 |
| Mirzaobod | 704,1 | 103,6 |
| Oqoltin | 633,5 | 101,8 |
| Sardoba | 459,9 | 101,6 |
| Sayxunobod | 304,2 | 103,1 |
| Sirdaryo | 877,2 | 101,4 |
| Xovos | 279,4 | 99,2 |


Jumladan, 2019 yilning yanvar-mart oylari chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,1 %ni tashkil etib, 14,2 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 6,6 % o`sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 100,0 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

SIRDARYO VILOYATINING
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
(2019 yil yanvar-mart oylari)

Yanvar-mart oylari viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 304,5 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 8,1 %ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-mart oylari yakunlariga ko`ra, 176,3 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 3,4 %ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 57,9 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, Yangiyer va Shirin shahrida (100,0 %) va Sirdaryo tumanida (90,4 %) yuqori bo'lган.

**Yirik va kichik korxonalarning
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar 2019 yil yanvar-mart oylari yakunlariga ko`ra, 128,1 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 15,3 %ga o`sdi. Ushbu sektorning umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 42,1 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko`rsatkich boshqa tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, Sardoba tumanida (98,9 %), Xovos tumanida (92,3 %) va Boyovut tumanida (95,2 %) yuqori bo'lgan.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

| | Jami (mlrd.so`m) | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da | Yirik korxonalar (mlrd.so`m) | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da | Kichik korxonalar (mlrd.so`m) | O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da |
|------------------------------|---------------------|--|------------------------------------|---|----------------------------------|--|
| Sirdaryo viloyati | 304,5 | 108,1 | 128,1 | 115,3 | 176,4 | 103,4 |
| Guliston sh. | 98,5 | 82,9 | 15,9 | 41,0 | 82,6 | 103,2 |
| Shirin sh | 0,1 | 103,1 | - | - | 0,1 | 103,1 |
| Yangiyer sh tumanlar: | 5,3 | 103,1 | - | - | 5,3 | 103,1 |
| Boyovut | 28,6 | 152,4 | 27,2 | 156,1 | 1,4 | 103,5 |
| Guliston | 6,8 | 144,9 | 4,4 | 186,0 | 2,4 | 102,2 |
| Mirzaobod | 18,4 | 123,0 | 4,8 | 2,5m | 13,6 | 104,2 |
| Oqoltin | 5,8 | 153,5 | 4,6 | 174,8 | 1,2 | 102,1 |
| Sardoba | 25,7 | 127,6 | 25,4 | 127,9 | 0,3 | 103,3 |
| Sayxunobod | 41,4 | 161,7 | 32,3 | 193,8 | 9,1 | 102,1 |
| Sirdaryo | 67,1 | 105,1 | 7,2 | 117,4 | 59,9 | 103,8 |
| Xovos | 6,8 | 116,0 | 6,3 | 117,2 | 0,5 | 104,7 |

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining ulishi, (%)



Ulgurji savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Guliston shahrida (32,3 %), Sirdaryo tumanida (22,1 %), Sayhunobod tumanida (13,6 %) qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi
bo'limi
Tel.:71-230-86-34